

QASHQADARYO VILOYATI SANOAT TARMOQLARI RIVOJLANISHINING IQTISODIY-GEOGRAFIK XUSUSIYATLARI

Navotova Dilnoza Ibrogimovna
o‘qituvchi,
Qarshi davlat universiteti

Jabborova Nigora Abdusalom qizi
4-kurs, talaba
Qarshi davlat universiteti

Annotatsiya: Bugungi kunda mamlakatimiz eksportbop hamda yuqori texnologiyali raqobatbardosh sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishga asosiy e’tibor qaratmoqda. Ushbu maqolada Qashqadaryo viloyatining Respublika iqtisodiyotidagi o’rni, viloyat sanoati rivojlanishining tarmoq xususiyatlari ularning hududiy joylanishlaridagi tarkibiy o‘zgarishlari o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: Iqtisodiyot, qazib oluvchi sanoat, qayta ishlovchi sanoat, tog’-kon sanoati, kimyo sanoati, yengil sanoat, to’qimachilik sanoati, infratuzilma, ijtimoiy soha, diversifikasiya, sanoat ishlab chiqarish.

ЭКОНОМИКО-ГЕОГРАФИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА РАЗВИТИЯ ПРОМЫШЛЕННЫХ СЕТЕЙ КАШАКАДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ

Аннотация: Сегодня наша страна ориентируется на производство экспортноориентированной и высокотехнологичной конкурентоспособной промышленной продукции. В данной статье изучена роль Каракалпакской области в экономике республики, отраслевые особенности промышленного развития регионов и структурные изменения в их территориальном расположении.

Ключевые слова: Экономика, добывающая промышленность, перерабатывающая промышленность, горнодобывающая промышленность, химическая промышленность, легкая промышленность, текстильная промышленность, инфраструктура, социальный сектор, диверсификация, промышленное производство.

ECONOMIC AND GEOGRAPHICAL CHARACTERISTICS OF THE DEVELOPMENT OF INDUSTRIAL NETWORKS OF KASHAKADARYA REGION

Abstract: Today, our country focuses on the production of export-oriented and high-tech competitive industrial products. In this article, the role of Kashkadarya region in the economy of the Republic, the branch characteristics of regional industrial development and the structural changes in their territorial locations are studied.

Key words: Economy, extractive industry, processing industry, mining industry, chemical industry, light industry, textile industry, infrastructure, social sector, diversification, industrial production.

Qashqadaryo eng qadimiy tarixga, o‘ziga xos madaniyatga ega, yer osti va yer usti boyliklari ko‘pligi bilan ajralib turadigan, bugun har tomonlama jadal rivojlanayotgan viloyatlardan biridir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti

Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "...Qashqadaryo viloyati yuksak iqtisodiy salohiyati, rivojlangan sanoati va qishloq xo'jaligi bilan O'zbekiston taraqqiyotida muhim o'rinni egallab kelmoqda. Bugungi kunda mamlakatimizda qazib chiqarilayotgan tabiiy gazning 70 foizi, neftning qariyib 78 foizi, gaz kondensatining 80 foizi, g'allaning 13 foizidan ortig'i, paxtaning 14 foizdan ziyodi viloyat hissasiga to'g'ri kelmoqda».

Uzoq yillar mobaynida viloyatning asosiy o'sish nuqtasi sifatida – neft-gaz sektoriga asosiy e'tibor qaratilgani natijasida iqtisodiyotning boshqa tarmoqlari, kichik va o'rta biznesni rivojlantirish, aholi turmush darajasi yaxshilash bo'yicha masalalar e'tibordan chetda qolib kelgan. Xususan, Davlat rahbari tomonidan 2020 yil 13 noyabrdagi Qashqadaryo viloyatini kompleks rivojlantirish masalariga bag'ishlangan yig'ilishda ta'kidlanganidek, «...Qashqadaryo o'zining salohiyatiga mos yashamayapti, mamlakatimizning ko'pgina hududlaridan ancha orqada. Bu zamin ulkan imkoniyatlarga ega. Lekin uning iqtisodiyoti va ijtimoiy sohalar ahvoli bunga mutlaqo mos emas. Aholi jon boshiga yalpi hududiy mahsulot mamlakatimizdagi eng past ko'rsatkichlardan biri». Bejizga, viloyatdagi muammolarning tahlilidan kelib chiqib, Davlat rahbari tomonidan «2021 yil - Qashqadaryo viloyatida tadbirkorlikni rivojlantirish yili» deb e'lon qilinmadı. Bugungi bozor talabi va «o'sish nuqtalari»dan kelib chiqib, viloyat tumanlarini muayyan iqtisodiyot yo'nalishlariga ixtisoslashtirish, aholini uy-joy bilan ta'minlash, yo'llar, ichimlik suvi tarmoqlari qurish bo'yicha belgilangan vazifalar qisqa muddatda o'z natijasini bera boshladi.

Qashqadaryo viloyati ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishi iqtisodiy salohiyatining o'sishi va uning bozor talablari asosida yangidan vujudga kelayotgan respublika mehnat taqsimotida o'ziga xos o'rinni egallashi ko'p jihatdan sanoat taraqqiyotiga bog'liq.

1-jadval


Viloyat sanoatining asosiy ko'rsatkichlari

	2020 yil	2021 yil	2022 yil	2023 yil

Sanoat mahsuloti hajmi, mldr. so'm	14574,8	18771,9	22624,4	28259,6
Sanoat mahsuloti ishlab chiqarishning o'sish sur'ati, o'tgan yilga nisbatan foizda	100,5	115,4	110,1	107,1
shu jumladan:				
Qazib oluvchi sanoat, mldr. so'm	1675,9	2079,4	1715,2	1626,3
Qayta ishlovchi sanoat, mldr. so'm	10097,0	12131,1	15352,2	22132,9

Manba:Qashqadaryo viloyati Statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida tayyorlandi.

Mahsulotlar ishlab chiqarishning eng katta hajmi ishlab chiqaradigan (qayta ishlaydigan) korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan bo'lib, ishlab chiqarish hajmi 22 132,9 mldr. so'm bo'lib, jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 78,3 foizni tashkil etdi (1-jadval).



Manba:Qashqadaryo viloyati Statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida tayyorlandi.

1-rasm. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish (umumiy hajmga nisbatan ulushi, foiz hisobida, 2023 yil)

Shuningdek, jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash faoliyat turi bo'yicha 4 358,7 mldr. so'm (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 15,4 %), suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish faoliyat turlari bo'yicha 141,7 mldr. so'm (0,5 %) hamda tog'-kon sanoati va ochiq konlarni

ishlash faoliyat turi bo'yicha 1 626,3 mlrd. so'm (5,8 %) mahsulotlar ishlab chiqarilgan (1-rasm).

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2023-yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1 626,3 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 5,8 foizini tashkil etdi.

Tog'-kon sanoatida ishlab chiqarilgan mahsulotlar turi bo'yicha Tabiiy gaz olish hajmi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 96,2 foizga pasayganligini kuzatish mumkin.

Viloyatda 2023 yilda 10,2 ming tonnona xom neft, shag'al 47,5 ming tonna, chaqiq tosh (sheben) 28,9 ming tonna, 82,1 mln m/kub tabiiy gaz, 105,5 ming tonna gaz kondensati ishlab chiqarildi.

Viloyat sanoatining tarmoq tarkibida og'ir sanoatning boshqa tarmoqlari ulushi nihoyatda past.

Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish – kimyoviy jarayonlar yordamida organik va noorganik xomashyo, materiallarni qayta ishlashni va tayyor mahsulot ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi. 2023- yil ma'lumotlariga ko'ra, kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 14,8 % ni tashkil qiladi. Kimyo sanoati mahsulotlari ishlab chiqarish 2022 yilga nisbatan 7 % ga oshganini ko'rish mumkin.

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish 2023- yilning yanvar-dekabr oyida o'tgan yilning mos davriga nisbatan elektrenergiya ishlab chiqarish 96,1 % ni, issiqlik energiyasi ishlab chiqarish esa 104,6 % ni tashkil etdi.

Viloyatda 2023 yilda ishlab chiqarilgan elektrenergiya miqdori 8167,2 mln kVt.s ni tashkil etgan bo'lsa, issiqlik energiyasi miqddori esa 3370,8 ming gkal ni tashkil etdi.

Qashqadaryo viloyatida yirik miqdorda paxta xom ashyo ishlab chiqarilishi resurslarining ko`pligi bu mintaqada yengil sanoatni rivojlantirish imkoniyatini beradi.

To‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati – to‘qimachilik tolasini tayyorlash va yigirish, shuningdek, to‘qimachilik gazlamalarini va tayyor to‘qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish, to‘qmachilik mahsulotlariga va kiyimlarga bezak berish, kiyimlardan tashqari tayyor to‘qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishni o‘z ichiga oladi. 2023- yilning yanvar-dekabr oylarida to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 24,3 % ni tashkil etgan.

Kiyim ishlab chiqarish – barcha materiallardan (masalan, teri, to‘qimachilik gazlamalari, to‘qilgan va trikotaj gazlamalari va h.k.) barcha tikish mahsulotlarini (tayyor yoki alohida buyurtma bo‘yicha qilingan), kiyimlarning barcha turlari (masalan, ustki kiyim, erkaklar, ayollar va bolalar uchun ichki kiyimlar, ish, ofis, kundalik yoki sport kiyimlari va h.k.) va aksessuarlarni ishlab chiqarishni o‘z ichiga oladi. 2023- yilning yanvar-dekabr oylarida kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 2,6 % ni tashkil etadi.

Qashqadaryo viloyatining oziq-ovqat sanoati, viloyat oziq-ovqat majmuasining yirik tarmog‘i hisoblanadi. Tarmoqning asosiy vazifasi respublika va viloyat aholisini turli xil yuqori sifatli oziq-ovqat mahsulotlar bilan ta`minlashdan iborat.

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish – yejiladigan qishloq xo‘jaligi, o‘rmon va baliqchilik (oziq-ovqat) mahsulotlarini, spiritsiz ichimliklarni, mineral suvlarni va boshqa idishdagi suvlarni o‘z ichiga oladi. 2023 yil ma’lumotlariga ko‘ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 11,0 % ni tashkil etadi.

Viloyatda ayrim turdagи sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda masalan, paxta lenti 2022 yil 4,6 ming tonna ishlab chiqarilgan bo’lsa, 2023 yilda esa 3,9 ming tonnagacha kamaygan. Aroq va yumshoq bug’doy, spelta uni 2022 yilda

2865,5 ming litr va 116,0 ming tonna ishlab chiqarilgan bo'lsa, 2023 yilga kelib ishlab chiqarish mos holda 2287,7 ming litrgacha va 31,5 ming tonnagacha kamaygan. Aksincha 2022 yilda paxta tolasi (74,7 ming t.), kalava ip (51,6 ming t.) ishlab chiqarish 2023 yilga kelib mos holda 81 ming tonnaga va 59,5 ming tonnagacha ko'paygan.

Viloyatning ishlab chiqarish sanoatida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish (31,1 %), Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish (22,3 %), Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish (19,0 %), Oziq- ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish (14,1 %) salmoqli ulushga ega. Qolgan ishlab chiqarish sanoat tarmoqlarining ulushi ancha kam.

Yuqoridagi tahlil natijalarini umumlashtirgan holda Qashqadaryo viloyati sanoati rivojlanishining tarmoq tarkibidagi o'zgarishlarga xos bo'lgan quyidagi tendensiyalarni ajratib ko'rsatish mumkun:

- ❖ mustaqillik yillarda Qashqadaryo viloyat yalpi sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi o'sish tendensiyasiga ega bo'ldi.
- ❖ Islohotlar davrida Qashqadaryo sanoatining xomashyoga o'rganganlik darjasini ortdi. Bu eng avvalo qazib oluvchi sanoat tarmoqlarining ustun darajada rivojlanganligi bilan tushuntiriladi;
- ❖ Qashqadaryo viloyati og'ir sanoatida yoqilg'i-energetika sanoati asosiy o'rinni egallaydi va keyingi yillarda uning mavqeい yanada mustahkamlandi. Bu yalpi sanoat mahsuloti asosiy fondlar va sanoat ishchilarini sonida yoqilg'i-energetika sanoati ulushining o'sganligida o'z aksini topadi;
- ❖ viloyat yalpi sanoat mahsulotida og'ir sanoatning yoqilg'i-energetikadan boshqa tarmoqlari ulushi pasayish tendensiyasiga ega bo'lmoqda.
- ❖ bu viloyat iqtisodiyotining yoqilg'i-energetika resurslariga bo'lgan bog'liqligini kuchaytiradi;
- ❖ oziq-ovqat sanoatining asosiy vazifasi respublika va viloyat aholisini turli xil yuqori sifatli oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlashdan iborat bo'lib, tarmoqning bugungi rivojlanish darjasini vazifani hal etish imkonini bermaydi.

Qashqadaryo viloyati sanoatining tarmoq tarkibidagi o`zgarishlar quyidagi muammolarni hal etish zaruriyatini keltirib chiqaradi:

- ❖ viloyat sanoati taraqqiyotida qayta ishlash sanoati rivojlanishining ustivorligiga erishish va uning yalpi sanoat mahsulotidagi salmog`ini oshirish;
- ❖ Qashqadaryo sanoatining xom ashyoga yo`nalganlik darajasini pasaytirish va tayyor mahsulot ishlab chiqaruvchi sanoat tarmoqlarini barpo etish hamda rivojlantirish;
- ❖ viloyatda og`ir sanoatning yoqilg`i-energetikadan boshqa tarmoqlari mashinasozlik, kimyo va neft kimyosi, qurilish materiallari sanoatining rivojlanishiga alohida e`tibor qaratish;
- ❖ yengil sanoatni rivojlantirish uchun mavjud bo`lgan ichki salohiyatdan samarali foydalanish va bu tarmoqqa xorijiy investisiyalarni jalb etishni faollashtirish;
- ❖ oziq-ovqat sanoatini rivojlantirishda qishloq xo`jalik mahsulotlarini qayta ishlash, konservalar, meva sharbatlari ishlab chiqarishga asosiy o`rin ajratish va bu sohaga xorijiy investisiyalarni jalb etish va hokazo.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI

1. Ortiqov A. Sanoat iqtisodiyoti. Darslik.-Т.:”Sano-standart”, 2014.-304 б.
2. Махмудов Э. “Корхона иқтисодиёти” (ўкув қўлланма) – Т.: ТДИУ. 2004 йил, 208 - бет.
3. Рўзиев А., Қ.Абиркулов “Ўзбекистон иқтисодий географияси”. Т.: Шарқ, 2001 йил, 144 - бет.
4. Рўзиев А., Рўзиев О., “Иқтисодий интеграциянинг худудий – географик жиҳатлари”. Термиз: “Сурхандарё”, 2001 йил, 20 бет.
5. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси// Халқ сўзи, 2017 йил 23 декабр.
6. Сайдова Г. Модернизация, техническое обновление и диверсификация производства, широкое внедрение инновационных технологий – необходимое условие выхода Узбекистана на новые рубежи на мировом рынке / «Жаҳон молиявий-иқтисодий инқизори, Ўзбекистон шароитида уни бартараф этишнинг йўллари ва чоралари» мавзусидаги Республика илмий-амалий анжуманидаги тақдимот материаллари. – Т., ТДИУ, 2009 йил 5 май.
7. The Penguin Dictionary of Economics (Graham Bannock, R.B. Baxter and Етлеп Davis], - 1998. -p. 168.
8. Сергеев Дмитрий Алексеевич. Структурные преобразования как фактор экономического роста в трансформационной экономике : Дис. ... канд. экон. наук : 08.00.01 : Казань, 2004 187 с. РГБ ОД, 61:04-8/3995
9. Н.Т.Тўхлиев ва бошқ. “Ўзбекистон иқтисодиёти асослари”, Т.:2005

10. Э.Л.Акромов Корхоналарнинг молиявий ҳолати таҳлили. – Т.: Молия, 2010, -223 б.
11. Ўзбекистон Республикасининг 2016 йилда ижтимоий-иқтисодий ривожланишининг асосий кўрсаткичлари. WWW/stat.uz.
12. Ўзбекистон Республикаси Давлат Статистика қўмитаси маълумотлари.
13. Ўзбекистон Республикаси Иқтисодиёт вазирлиги маълумотлари.
14. Файзуллаев М.А. Хужақулов С.У. Ўзбекистон нефть-газ саноати ривожланишида чет эл инвестицияларининг тутган ўрни // "Экономика и социум" №3(94)-2 2022. – С. 914-919
15. Файзуллаев М.А., Навотова Д.И., Хужақулов С.У. Озиқ-овқат хавфсизлигини таъминлашда ер ресурсларидан фойдаланишнинг географик хусусиятлари // Фундаментал ва амалий географик тадқиқотларда инновациялар Республика илмий-амалий конференцияси материаллари. (14-15 октябрь, 2022 йил, Тошкент). - Тошкент, 2022. – Б. 148-150
16. Faizullaev M.A., Nurmatov A.U., Khujakulov S.U. Economic geographical characteristics of the development of industrial networks of Kashadarya region // Proceedings of International Conference on Modern Science and Scientific Studies Hosted online from Paris, France. P. 125-134
17. Навотова Д.И. Ер ресурсларидан қишлоқ хўжалигида фойдаланишни тадқиқ қилишнинг назарий-услубий жиҳатлари// Central Asian Research Journal For Interdisciplinary Studies (CARJIS). Volume 2 | issue 1 | Tashkent,Uzbekistan. 2022. – Р. 321-327
18. Навотова Д. И., Хайдарова Ф. Географические особенности использования зарубежного опыта использования земельных ресурсов в хозяйственных хозяйствах //Экономика и социум. – 2022. – №. 4-3 (95). – С. 198-202.
19. Навотова Д. И. Қашқадарё вилояти қишлоқ хўжалиги географияси ва уни карталашибиришнинг баъзи масалалари //Экономика и социум. – 2022. – №. 3-2 (94). – С. 721-725.
20. Navotova D.I. Internal differences in the use of land resources in the agriculture of Kashkadarya region// Eurasian Journal of History, Geography and Economics. Volume 12. Belgiya. 2023. - P.100-104
21. <https://review.uz/uz/post/qashqadaryo-viloyatining-2022-yil-yanvar-dekabr-oylaridagi-asosiy-makroiqtisodiy-ko'rsatkichlari>
22. Sultonov Shuxrat Adxamovich, Sultonov Nekro‘z Aliqulzoda. Meteoritlar hosil qilgan kraterlar va ular natijasida foydali qazilmalarni hosil bo‘lishiga doir mulohazalar. Лучшие интеллектуальные исследования: Vol. 16 No. 1 (2024). 113-123-betlar.
23. Sultonov Shuxrat Adxamovich. Neft - gaz hosil bo‘lishidagi cho‘kindi jinslar klassifikatsiyasi xossalarni o‘rganish va tahlil qilish. Лучшие интеллектуальные исследования. Vol. 16 No. 1 (2024). 124-130-betlar.
24. Султанов.Ш.А. (2020). Петрохимические и геохимические особенности дайковых серий северной части Чакылкаянского мегаблока (южный Узбекистан). *TECHника*, (3), С 24-33.
25. Sultonov Shuxrat Adxamovich, Sultonov Nekro‘z Aliqulzoda, Yer tarixida kechgan metallogenik bosqich va davrlar haqida ayrim mulohazalar. Лучшие интеллектуальные исследования: Vol. 16 No. 1 (2024). 105-112-betlar.
26. А.А.Кушнарев. Структурные преобразования экономики как особый Объект управления: <http://cyberleninka.ru/article/n/strukturnye-preobrazovaniya-ekonomiki-kak-osobyy-obekt-upravleniya>
27. <https://www.qashstat.uz/uz/> (Qashqadaryo viloyati Statistika boshqarmasi sayti)